

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси
Давлат тест маркази

АХБОРОТНОМА

2019

№ 3

Тошкент

«АХБОРОТНОМА»

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар
Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест
маркази
илмий-услубий журнали.
Бир йилда 4 марта чиқади.
Ўзбекистон Матбуот ва ахборот
агентлигида 2007 йил 19 апрелда
кайта рўйхатдан ўтказилган.
Гувоҳнома № 0247

Таъсисчи:

Давлат тест маркази

Таҳририят хайъати:

Закирова Махпиза

(бош муҳаррир)

Гулямов Суръат

Муҳаммадиев Муродулла

Каримов Маджит

Содиқов Қосимжон

Ибрагимов Абдуғофур

Бобоев Орзиқул

(бош муҳаррир ўринбосари)

Қаюмов Абдухалил

Мирвалиев Зоид

(масъул котиб)

Босишга рухсат этилди: 27.09.2019

Шартли босма табоғи: 5,9

Нашриёт ҳисоб табоғи: 6,0

Адади 100. Буюртма № 3-А-19

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар
Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест
маркази босмаҳонасида чоп этилди.

Нашрга тайёрловчилар:

А.Баратов, З.Мирвалиев

Компьютерда саҳифаловчи:

О. Бобоев

Таҳририят манзили:

100084, Тошкент шаҳри,
Боғишамол кўчаси, 12- уй.

© «Ахборотнома»

МУНДАРИЖА

Кириш.....	3
Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест маркази “Ахборотнома” журнали муаллифлари учун қоидалар.....	4
Правила для авторов.....	8
А.А.Баратов. Хориж ва Ўзбекистонда оммавий тест синовидан ўтказиш тизимининг ривожланиши.....	12
Ғ.А.Бобоев. Тест синовларини ташкил этишда гуруҳ назоратчиларининг роли	17
Z.Z.Mirvaliev, M.Z.Mirvalieva. History of development of linguodidactic testing.....	20
S.B.Orifjonov. Markaziy elasiq to‘qnashuvda tezliklar orasidagi bog‘lanish.....	22
S.B.Orifjonov. Ideal gazing bosimi	25
J.Iskandarov, N.Nurmuxamedova. 2019-2020 o‘quv yili test sinovi natijalari tahlili.....	27

КИРИШ

“Ахборотнома” илмий-услубий журналининг мазкур сонида Давлат тест маркази ходимлари томонидан ўрганилган, олиб борилган таҳлиллар ва тажрибалар натижасида тайёрланган мақолалар берилган.

Хусусан, биринчи мақола хориж ва Ўзбекистонда оммавий тест синовидан ўтказиш тизимининг ривожланишига бағишланган бўлиб, илк бор тест синови қачон қўлланила бошланганлиги, эрамиздан одинги даврлардаги синовлар, уларни инсониятнинг ривожланиш даврида ва шу кунгача ривожланган хорижий давлатлардаги ҳолати, мамлакатимиздаги тест тизимида ҳукумат томонидан бўлган эътибор, унинг ривожига баён қилинган.

Шунингдек, мазкур сонда тест синовлари жараёнида имконияти чекланган абитуриентлар билан ишлашнинг психологик жиҳатларига қаратилган мақола келтирилган бўлиб, олий таълим муассасаларига ўқишга қабул қилиш бўйича Давлат тест маркази томонидан ўтказилаётган тест синовларида имконияти чекланган, ногирон абитуриентлар тест синовлари жараёнида дуч келадиган стресс ҳолатларни олдини олиш, уларга тест синовлари олдида ва жараёнда психологик ёрдам кўрсатиш, алоҳида шарт-шароитлар яратиш ҳамда ечимлари бўйича тавсиялар берилган.

Булардан ташқари журналда Миллий тест тизимиздаги тест синовларини ташкил этишда гуруҳ назоратчиларини роли мавзусидаги мақола келтирилган бўлиб, бу борада бир қатор таҳлилий маълумотлар келтирилиши билан бирга, муаллиф томонидан тест синовлари жараёнида амалдаги қонун ҳужжатларида гуруҳ назоратчиларининг ролини ошириш учун уларнинг ҳуқуқлари доирасини кенгайтириши, шу билан бирга эътиборли томонларини инобатга олган ҳолда рағбатлантиришга эътибор қаратилиши ҳам кўрсатиб ўтилган.

Журнал саҳифасидан физика умумтаълим фанидан абитуриентлар учун қизарли бўлган марказий эластик тўқнашувда тезликлар орасидаги боғланиш ҳамда идеал газнинг босими мавзуларга қаратилган мақолалар ҳам ўрин олган.

Ушбу сонда 2019/2020 ўқув йилида бакалаврият таълим йўналишларига талабалikka қабул қилиш учун ўтказилган тест синовлари кундузги таълим шакли бўйича олий таълим муассасаларидаги тест натижалари материали келтирилган бўлиб, абитуриентларнинг вилоятлар, олий ўқув юртлари, билим ва таълим соҳалари, ҳамда таълим тиллари кесимидаги маълумотлари, шу билан бирга абитуриентлар тайёргарлигининг сифат мониторинги, ўртача ўтиш, энг юқори баллар ва бошқа шу каби кўрсаткичлар жадвал, диаграмма, гистограмма кўринишида чуқур таҳлил қилинган.

Мазкур журнал сонида илк бор Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест маркази “Ахборотнома” илмий-услубий журнали муаллифлари учун мақолаларни нашр этишга қўйилган асосий қоида ва талаблар, жумладан мавзулар ва чоп этиш шакллари, қўлёзмани расмийлаштириш ҳамда уни таҳририятга тақдим этиш, уни таҳририятдан ўтиш тартиби ҳақидаги асосий маълумотлар келтирилган.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест маркази “Ахборотнома” журнали муаллифлари учун қоидалар

I. Мавзулар ва чоп этиш шакллари

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест марказининг “Ахборотнома” илмий-услубий журнали педагогик ўлчовларга оид назарий ва амалий мақолаларни чоп этади. Тестология бўйича бажарилган ишларга алоҳида диққат қаратилади. Мақоланинг умумий ҳажми 15 бетдан ошмаслиги лозим (14 pt, Times New Roman шрифтида).

Етарлича илмий янгиликка эга ва тезда нашр қилиниши лозим бўлган материаллар **бош муҳаррирга хат** кўринишида (4 бетдан ортиқ бўлмаган, 14 pt Times New Roman шрифтида) тақдим этилади.

Аввал чоп этилган мақолани тўлдирувчи ёки тузатувчи, лекин тўлиқ мақола сифатида чоп этиш талаб қилинмайдиган материаллар **қисқа хабарлар** (6 бетдан ортиқ бўлмаган, 14 pt, Times New Roman шрифтида) кўринишида нашр қилинади.

Журналда педагогик ўлчовларга оид энг долзарб назарий ва амалий муаммоларга бағишланган **таҳлилий мақолалар** ҳам чоп этилиши мумкин (40 бетдан ортиқ бўлмаган, 14 pt, Times New Roman шрифтида). Муаллифлар таҳририятга олдиндан таҳлилий мақоланинг қисқача мазмунини (1 бетдан ортиқ бўлмаган) бериб, келишиб олиши керак.

Тақдим этилган қўлёзма матнида **бир мазмундаги материални асосланмаган ҳолда бир неча мақолага бўлиш** ва **ҳаддан ташқари ўз-ўзига ҳавола қилишдан қочиш** керак.

Ҳавола қилинган адабиётлар рўйхатида асосан охириги 5-10 йилда чоп этилган манбалар кўрсатилиши керак. Анча эски адабиётлар зарур ҳолатларда ҳавола қилинади.

Журнал таҳририяти мақолани таҳрир қилиш ва материалларни бирлаштириш, шунингдек, қискартириш ҳуқуқини ўзида қолдиради.

II. Қўлёзмани расмийлаштириш ва уни таҳририятга тақдим этиш

Мақола қўлёзмаси, кўргазмали материаллари (таблицалар, чизмалар ва расмлар) билан биргаликда битта файлда, электрон шаклда (узлуксиз рақамланган ҳолда) таҳририятда қабул қилинади (*axborot@dtm.uz* электрон манзил бўйича).

Муаллифлар мақола қўлёзмаси билан бирга қўлёзма аввал бошқа журналда чоп этилмаганлиги ва чоп этиш учун навбатда турмаганлигини тасдиқловчи қафолат хатини тақдим этиши керак.

Муаллиф 7 иш кунида мақола қўлёзмаси келиб тушганлиги ҳақида хабардор қилинади.

Назарий, амалий, таҳлилий мақолаларни, редакторга хат ва қисқа хабарларни расмийлаштиришда қуйидаги тартибга риоя қилиш керак:

1. Қўлёзма матни (мавзуси, қисқача мазмуни, муаллифнинг фамилияси, исми ва шарифи, иш жойи, калит сўзлар билан) 14 кегл, 1,5 ораликда (Times New Roman шрифтида), барча томонларидан 2 см. ҳошия қолдирган ҳолда тайёрланади. Матннинг асосий тексти (мавзу ва мавзучалар номидан ташқари) кенглиги бўйича текисланган бўлиши керак. Матн редактори Microsoft Office Word дан (*.rtf форматда) фойдаланилган ҳолда тайёрланади.

Мақола қўлёзмасида бўлимлар тартиби:

1. Кириш
2. Натижалар ва муҳокама
3. Амалий қисм
4. Хулоса
5. Ташаккурнома (мажбурий эмас)
6. Молиявий манбаси (бўлса)
7. Манфаатлар тўқнашуви
8. Адабиётлар рўйхати
9. Abstract (ўзбек ва инглиз тилларида).

2. **Мақола номи** (юқори даражада маълумотли бўлиши, ишнинг аниқ мазмунини ўзида акс эттириши ва калит сўзлари бўлиши, йўналишни ва тадқиқотнинг асосий натижаларини ифодалаш керак. Агарда мақола навбатдаги хабар бўладиган бўлса, унда олдинги хабарни изоҳ ва адабиётлар рўйхати аввалида бериш), бош ҳарфда, ярим тўқ рангда, ўртада берилади.

3. **Муаллифларнинг фамилияси ва исми шарифи** (биринчи муаллифнинг фамилияси ва исми шарифи олдида муаллифлик ҳуқуқи белгиси ва қўлёзманинг журналга тақдим этилган йил қайд этилади, масалан: © **2019 й. Тошматов З.З., Эшматов А.А., Норматов М.Д.** ва шунга ўхшаш. Ёзишмага масъул бўлган муаллиф фамилиясига олдида юлдузча белгиси қўйилади *). Яримтўқ рангдаги ҳарфда, ўртага текисланган ҳолда берилади.

4. Иш бажарилган **ташкilot ва идоранинг тўлиқ номи**, (агар ташкilotлар бир нечта бўлса, қайси муаллиф қайси ташкilotда ишлаши кўрсатилади). Муаллифларнинг иш жойи кичик лотин ҳарфи билан белгиланиб, ташкilot номи олдида қўйилади, масалан,

*б ЎзР ВМ ҳузуридаги Давлат тест маркази, 100214, Ўзбекистон
Республикаси, Тошкент ш., Богшамол к., 12.*

Оғишган ҳарфда ва ўртага текисланган ҳолда берилади.

5. Ёзишмалар учун муаллифнинг **электрон манзили** *e-mail: toshmatov1972@dtm.uz шаклида берилади. Оғишган ҳарфда ва ўртага текисланган ҳолда берилади.

6. **Калит сўзлар** (5 тадан 10 тагача) бўлади, масалан: **Калит сўзлар:** педагогик ўлчовлар, тестология, валидлик, ишончлилиқ, меъърий-йўналтирилган. Кичик ҳарфда ва чапга текисланган ҳолда берилади.

7. **Қисқача мазмунда** (400-500 белгилар), мазмунни ташкил этувчи асосий усуллар ва муаллифларнинг тадқиқот натижалари бўйича аниқ хулосалари берилади. Қисқача мазмунда қисқартмалар бериш, шартли белгилашлар, рақамли боғланишлар ва адабиётларга ҳавола беришга йўл қўйилмайди. Кичик ҳарфда ва матн кенглиги бўйича текисланган ҳолда берилади.

8. **Умумий қисмида** мавзуга оид қисқача олдин эълон қилинган ишларнинг танқидий таҳлили, ишнинг мақсад ва вазифалари, тадқиқот натижаларининг муҳокамаси берилади.

Ишнинг мақсади аниқ кўрсатилган бўлиши керак, "...қизиқ бўларди...", "...қизиқтирар эди..." кўринишдаги жумлалар ишлатилишига мутлақо йўл қўйилмайди. Муаллиф томонидан қайд этилган ҳар бир ҳолат ўз амалий иши (ҳисоб-китоб) билан тасдиқланиши ёки адабиётга ҳавола қилиниши керак.

9. **Амалий тажриба қисмида** амалий тажрибани ўтказиш тафсииви ва натижалари ҳақидаги маълумотлар берилади.

Қисқача хабар ва Редакторга хатда амалий тажриба қисми алоҳида берилмайди.

10. **Ҳавола қилинган адабиётлар рўйхати** қуйида келтирилган намуна кўринишида расмийлаштирилади. Барча муаллифларнинг фамилияси, исми ва шарифи келтирилади ("ва б." қисқартиришларга йўл қўйилмайди).

11.

Журналлардаги мақолаларга:

1. Тошматов Н.Э. ЎзР ВМ ҳузуридаги ДТМ Ахборотномаси. 2018, 1, 78.

Диссертация ва авторефератларга:

1. Тошматов Э.Н. ... дис. П.ф.д. Тошкент. 2018.

2. Эшматов Т.М. ... Автореф. Дис. П.ф.н. Тошкент. 2016.

11. **Abstract** – инглиз тилида 7-банд.

12. **Ташаккурнома қисмида** фойдали муҳокама ва мунозара, ҳамкасбларга ва тақризчига миннатдорлик ҳақидаги маълумотлар келтирилади. Шунингдек, матнни компьютерда териш, расм ва чизмалар чизишда ёрдам берганларга ҳам миннатдорчилик билдириш мумкин.

13. **Молиявий манба** қисмида грантлар ва бошқа молиявий ёрдамлар ҳақидаги маълумотлар келтирилади. Ташкилот ва ҳомий ташкилот номи қисқартирилмасдан тўлиқ келтирилади.

14. **Манфаатлар тўқнашуви** қисмида муаллифлар манфаатлар тўқнашуви йўқлиги ҳақида ёзиши шарт.

III. Мақоланинг чоп этишга қабул қилинганлиги ҳақидаги маълумот

Мақола таҳририят базасига келгандан кейин (муаллифнинг сўровига кўра) нашрга қабул қилинганлиги ҳақида маълумотнома берилиши мумкин. Унда фақат қабул қилинган йили кўрсатилади, масалан, "... мақола барча қабул этапларидан ўтди ва 2019 йилда чоп этилиш учун қабул қилинди".

VI. Қўлёманинг таҳририятдан ўтиш тартиби

Қўлёмна матни олингандан (ва бу ҳақда муаллифга хабар берилгандан) кейин у тақризчига юборилади (**дастлабки тақриз**). Журнал тартибига кўра, дастлабки таҳрирга 14 иш кунигача вақт берилади. Журнал таҳририяти бир томонлама тақриздан фойдаланиб, таҳририят аъзоларидан бирига (single-blind – тақризчи муаллифни билади, муаллиф тақризчи кимлигини билмайди) беради. Тақризчининг эътирозлари олингандан кейин қўлёмна **дастлабки қайта ишлашга** юборилади (7 календар кунигача).

Муаллифга тақризчи эътирозлари билан қўлёмнага иккита шартнома бланки (лицензия шартномаси ва муаллифлик ҳуқуқини бериш ҳақидаги шартнома) юборилади. Муаллиф шартномани тўлдиради, имзолайди ва текстнинг қайта ишланган шакли билан бирга электрон шаклда (*.pdf шаклида) юборади. Имзоланмаган, шартномасиз қўлёмани журналнинг тайрланаётган сонига бериб бўлмайди.

Қайта ишланган қўлёмна матни олинганидан сўнг у қайта тақризга юборилади (қайта тақриз муддати 14 иш кунигача). Тақризчи қўлёмна матнини кўриб чиқади ва чоп этиш/қайта ишлаш ёки қўлёмани чоп этишни рад этиш ҳақида хулоса беради.

Тақриз олиш босқичидан кейин қўлёмна журнал илмий редакторига юборилади. Илмий редактор эътирозлар тайёрлайди, ўзгаришлар киритади ва уларни муаллиф билан келишади.

Муаллифлар томонидан мақола узрли сабабсиз 1 ойдан кўп муддатга кечиктирилса, дастлабки келиб тушган **санаси сақланмайди**.

Таҳририят жамоси мақолани чоп этишни рад этиш ҳуқуқини қуйидаги ҳолларда ўзида қолдиради:

- 1) журнал соҳасига мос келмаса;
- 2) олинган натижалар аҳамиятлилигининг етарли эмаслиги;
- 3) тадқиқотнинг мақсад ва вазифалари аниқ шакллантирилмаганда;
- 4) замонавий тадқиқот даражасига мос келмаса;
- 5) хулосалар етарли даражада адабиётлар ёки амалий тажриба материаллари билан асосланмаган бўлса;
- 6) келтирилган натижалар муаллиф ёки бошқа тадқиқотчилар томонидан етарлича тўлиқ мақола сифатида чоп этилган бўлса;

7) мақоланинг бадиий сифати ва/ёки унинг расмийлаштирилиши қониқарсиз бўлса, “муаллифлар учун қоидалар”га риоя қилинмасдан расмийлаштирилган бўлса;

8) тахририятга келган, муаллиф томонидан икки марта қайта ишланган, вариантда тақризчининг барча эътирозлари (мос равишда асосларсиз) инобатга олинмаган бўлса.

Правила для авторов

I. Тематика и виды публикаций

В журнале “Ахборотнома” Государственным центр тестирование при Кабинете Министров Республики Узбекистан печатаются теоретические и экспериментальные оригинальные статьи о педагогических измерениях. Особое внимание уделяется исследованиям о тестологии.

Объем **статьи** не должен превышать 15 страниц машинописного текста (14 pt в шрифте Times New Roman).

Материалы, обладающие существенной научной новизной и заслуживающие срочной публикации, представляются в виде **писем редактору** (не более 4 страниц 14 pt в шрифте Times New Roman).

В виде **кратких сообщений** (не более 6 страниц 14 pt в шрифте Times New Roman) может быть опубликован материал, дополняющий или корректирующий ранее опубликованный, но не требующий публикации в виде полной статьи.

В журнале также публикуются **обзорные статьи** по важнейшим и актуальным проблемам теоретических и экспериментальных педагогических измерений (не более 40 страниц 14 pt в шрифте Times New Roman). Тематику обзоров авторы должны предварительно согласовать с редакцией, представив краткую аннотацию (не более 1 страницы).

В представляемых тестах рукописей следует **избегать необоснованного разделения материала по одному вопросу на несколько статей и чрезмерного самоцитирования.**

В **списке цитируемой литературы** должны быть указаны источники, опубликованные, главным образом, за последние 5–10 лет. Цитирование более ранних работ допускается только в крайних случаях.

Редакция сохраняет за собой право принимать решение о сокращении и объединении материалов, а также о сокращении статьи независимо от ее объема.

II. Представление рукописей в редакцию и их оформление

Рукописи статей, включая иллюстративный материал (таблицы, схемы, рисунки), принимаются в редакцию в электронной форме (по эл. адресу: *axborot@dtm.uz*) в объеме **единого файла** (со сплошной нумерацией страниц).

Вместе с рукописью авторам необходимо предоставить письмо-подтверждение (в свободной форме), в котором гарантируется, что материал рукописи ранее нигде не публиковался и не находится на рассмотрении для публикации в других журналах.

Авторам в течение 7 рабочих дней со дня поступления рукописи в редакцию направляется уведомление о ее получении.

При оформлении экспериментальных, обзорных статей, писем редактору и кратких сообщений необходимо придерживаться следующего порядка:

1. Весь текст рукописи (включая название, инициалы и фамилии авторов, места работы авторов, краткое резюме и ключевые слова) дается 14 кеглем, 1,5 интервалом (шрифт TimesNewRoman), поля по 2 см с каждой стороны. Выравнивание основного текста рукописи – по левому краю (кроме заголовков и подзаголовков). Используемый текстовый редактор – MicrosoftOfficeWord (формат *.rtf).

Порядок разделов рукописи:

1. Введение
2. Результаты и дискуссия
3. Экспериментальная часть
4. Заключение
5. Благодарности
6. Фондовая поддержка
7. Конфликт интересов
8. Список литературы
9. Abstract

2. **Название статьи** (должно быть максимально информативно, отражать конкретное содержание работы и содержать ключевые слова, отражающие направление и/или основной результат исследования. Если статья является очередным сообщением серии, то предыдущее сообщение указывается в сноске и первым в списке литературы). Дается прописными буквами, полужирным начертанием, выравнивание текста по центру.

3. **Инициалы и фамилии авторов** (перед первой фамилией и инициалами автора необходимо поставить знак авторского права и год подачи рукописи в редакцию журнала, например, © 2019 г. **З.З. Тошматов, А.А. Эшматов, М.Дж.Норматов**. Фамилию автора, ответственного за переписку, необходимо обозначить типографским знаком-звездочкой *). Дается полужирным начертанием, выравнивание текста по центру.

4. **Полное название учреждения и ведомства**, в котором проведена работа (если учреждений несколько, следует указать, где и какие авторы работают. Места работы авторов индексируются латинскими строчными буквами надстрочным знаком перед названием учреждения, например:

в Государственный центр тестирования при КМПУз, 100214, Республика Узбекистан, г. Ташкент, ул. Багишамол, 12.

Дается курсивным начертанием, выравнивание текста по центру.

5. Электронный адрес автора для переписки в формате *e-mail: toshmatov1972@dtm.uz. Дается курсивным начертанием, выравнивание текста по центру.

6. Ключевые слова (от 5 до 10 шт.), например, **Ключевые слова:** педагогические измерения, тестология, валидность, досовенность, нормативно-ориентированный. Даются строчными буквами, выравнивание текста по левому краю.

7. Краткое резюме (не менее 400–500 знаков), содержащее изложение основных методов и конкретных умозаключений авторов по результатам исследования. В резюме **нельзя** использовать формулировки типа «Показано, что...» или «Установлено, что...», сокращения, условные обозначения, а также номера соединений и литературные ссылки.

Дается строчными буквами, выравнивание текста по левому краю

8. **Общая часть** содержит краткое критическое рассмотрение ранее опубликованных работ вданной области, цели и задачи работы, обсуждение результатов собственных исследований, схемы превращений.

Цель работы должна быть **четко изложена**, категорически недопустимы расплывчатые формулировки типа «было интересно...», «представляет интерес...». Каждое положение, высказанное авторами, должно быть подтверждено собственными экспериментами (расчетами) либо литературными ссылками.

9. **Экспериментальная часть** содержит описание хода и результатов экспериментов.

В Кратких сообщениях и Письмах редактору экспериментальная часть в отдельный раздел не выделяется.

10. **Список цитируемой литературы** оформляется в соответствии с приведенными ниже примерными образцами библиографических описаний. Приводятся фамилии и инициалы всех авторов (сокращения «и др.», «etal.» не допускаются).

Статью в журналах:

1. Тошматов Н.Э. ЎзР ВМ хузуридаги ДТМ Ахборотномаси. 2018, 1, 78.

Диссертация ва авторефератларга:

1. Тошматов Э.Н. ... дис. П.ф.д. Тошкент. 2018.
2. Эшматов Т.М. ... Автореф. Дис. П.ф.н. Тошкент. 2016.

11. Abstract – английская версия пункт 7.

12. Раздел "**Благодарности**" может включать: сообщения о полезных обсуждениях и дискуссиях, благодарности коллегам и рецензентам (в особых случаях); сообщения о предоставлении материалов, данных, компьютерного обеспечения, помощь в технической подготовке текста, а также всё прочее, что оценивается как полезная помощь.

13. Раздел "**Фондовая поддержка**" должен содержать информацию о грантах и любой другой финансовой поддержке исследований. Названия институтов и спонсирующих организаций должны даваться **без сокращений**.

14. Раздел "**Конфликт интересов**" (**обязательный раздел** каждой рукописи) должен содержать следующую формулировку: Авторы заявляют об отсутствии конфликта интересов.

III. Отчетность и справки о принятии статьи в печать

До выхода статьи в свет и ее появления в базах данных редакция Журнала (по запросу автора) может выдать справку о принятии статьи в печать с указанием только года принятия, например, «...статья прошла все этапы работы и принята к печати в 2019 году».

IV. Порядок прохождения рукописи в редакции

После получения текста рукописи (и оповещения об этом авторов) он направляется на рассмотрение рецензенту (**первичное рецензирование**). По правилам журнала на первичное рецензирование отводится до **14** рабочих дней. Редакция журнала использует одностороннее «слепое» рецензирование одним из членов редколлегии (single-blind – рецензент знает об авторе, автор о рецензенте – нет). После высказанных рецензентом замечаний рукопись направляется на **первичную доработку** (до **7** календарных дней).

Вместе с замечаниями рецензента авторам направляются **две формы договоров** (лицензионный договор и Договор о передаче авторского права) на рукопись, которые необходимо **заполнить, подписать** и подать в **эл. виде** (формат *.pdf) вместе с доработанным вариантом текста рукописи. Без подписанных договоров подача рукописи в готовящийся номер невозможна.

После получения доработанного варианта текста рукописи (и авторских договоров) он направляется на **повторное рецензирование** (срок предоставления повторной рецензии – до **14** рабочих дней). Рецензент просматривает текст рукописи и дает заключение о публикации/повторной доработке или отклонении рукописи.

После этапа рецензирования рукопись направляется **научному редактору** журнала. Научный редактор высказывает замечания, вносит исправления и согласовывает их с авторами.

Редакционная коллегия оставляет за собой право **отклонить статью** по следующим причинам:

- 1) несоответствие профилю журнала;
- 2) недостаточная значимость полученных результатов;
- 3) нечеткая формулировка целей и задач исследования;
- 4) несоответствие современному уровню исследований;
- 5) недостаточная обоснованность выводов литературным или экспериментальным материалом;
- 6) описанные результаты уже опубликованы достаточно полно авторами статьи или другими исследователями;
- 7) неудовлетворительные литературные качества статьи и/или ее оформление, несоответствие оформления «Правилам для авторов»;
- 8) в варианте, полученном редакцией после двукратной доработки авторами, не учтены (без соответствующего обоснования) все замечания рецензента.

Хориж ва Ўзбекистонда оммавий тест синовидан ўтказиш тизимининг ривожланиши

А.А.Баратов, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат
тест маркази

Тарихда илк бор тест синови қачон қўлланила бошланганлигини аниқлаш энг муаммоли масалалардан биридир. Эрамиздан одинги III минг йилликнинг ўрталарида қадимги Вавилонда котиб тайёрлаш мактабининг битирувчилари учун синовлар ўтказилган. Ўша даврга кўра кенг билимли котиблар месопотам цивилизацияси асосий шахсларидан ҳисобланган. У дала майдонини ўлчаш, мулкни бўлиш, қўшиқ айтиш, мусиқа асбобларини чалишни билган. Синов вақтида унинг мато, металл, ўсимликларнинг фарқига бориши, шунингдек, тўрт амални билиши ва табиийки, ёзиш кўникмаси текширилган [1].

Қадимги Мисрда руҳонийлик маданиятига тизимли синовлардан ўтганларнигина ўқитишган. Биринчи бўлиб номзодлар суҳбат жараёнидан ўтган. Бунда биографик маълумотлари, саводхонлик даражаси аниқланган, ташқи кўриниши ва суҳбатлаша олиши баҳоланган. Шундан кейин меҳнат қила олиши, эшитиши, сукут сақлай олиши текширилган. Олов, сув ва ўлим билан кўрқитиб синаб кўришган. Синов натижасига кўра мактабга кимни қабул қилиш аниқланган [2]. Пифагор ҳам ёшлик даврида ушбу синовлардан ўтган. Ўқишни тугатиб, Грецияга қайтгач, ўз мактабини очган ва ўзи ўтган синовларга ўхшаш синовлар асосида ўқишга қабул қилган.

Эрамиздан одинги III минг йилликкача Хитойда расмий ҳукумат одами лавозими бўлган. Ушбу лавозимга синов асосида ишга қабул қилишган. Шу даврдан биринчи касбий танлов элементлари пайдо бўла бошлаган.

Яқин юз йилликларда, 1884 йили АҚШда биринчи тестга оид тест материаллари китоби нашрдан чиққан бўлиб, унда топшириқ жавоби беш балли

шкаладаги баҳо билан берилган. Бу китобда математика, тарих, грамматика, навигация бўйича топшириқлар, иншолар учун намунавий матнлар иншони миқдорий баҳолаш усули билан берилган. Бу тарихда биринчи бўлиб педагогик ишларда оддий статистик таҳлилни қўллаш ҳолати бўлган.

АҚШда тез тарқала бошлаган билимни назорат қилишнинг бундай шаклига нафақат кўплаб қўллаб-қуватловчилар, балки қаршилар ҳам бўлишган. Масалан, Чикагода мактаб инспектори 1881 йилда ёзма назорат ўтказишни тақиқлаган. Ўқувчини синов асосида эмас, балки ўқитувчи ва директорнинг фикри асосида кейинги синфга ўтказишни жорий қилган. Ҳеч ким ўқувчини ўқитувчидан кўра яхши баҳолай олмайди, имтиҳонлар ва бошқа ҳар хил синовлар соғлом фикр устидан кулишдир, деган гап тарқалган. Бу ҳаракатлар XIX аср охирида авжига чиқади. Шундан кейин яна билимни баҳолашга йўл очила бошлаган.

1885 йилда АҚШда давлат билимни назорат қилиш тизими жамиятини тузиш эҳтиёжи пайдо бўлди. Нью-Йоркда имтиҳон кенгаши иш бошлаган. 1900 йилда АҚШда коллеж абитуриентларининг билимини назорат қилиш учун давлат билимни назорат қилиш комитети ташкил этилган.

XIX аср охири XX аср бошларида Россияда тестларни ишлаб чиқиш, уларни қўллаш масаласи муҳокама қилинмаган ва бу масала кўтарилмаган.

Аввал билим, малака ва кўникмаларни баҳолашнинг объектив усули – тестлар XX аср бошларида пайдо бўлган. У Англия, АҚШ ва кейинчалик Россия ва собиқ иттифоқ олий таълим муассасаси ва мактаблари ўқитувчилари орасида тезда оммалашиб кетган. Тахминан шу вақтлардан АҚШда уларни педагогик тестлар деб атаётган.

1917 йилгача Россияда тестология соҳасида тадқиқот ишлари етарлича эътибор берилмаган эди. 1928 йилда А.П.Болтунов томонидан “ақлий ўлчов шкаласи” ишлаб чиқилган. Россиядаги тест тизимининг ривожланиш жараёнини унинг тарихий жиҳатларига кўра икки босқичга бўлиш мумкин: 1-босқич 1917-1936 йиллар ва 2-босқич 1970 йилдан бошлаб ҳозирги кунгача бўлган давр.

Россияда 20-30 йилларга келиб тест синовларини ўтказиш оммалашди ва кенг тарқала бошлади. Жумладан, 1925 йилдан мактаб педагог бўлимлари томонидан тест ўтказиш комиссиялари ташкил этилди. Унинг асосий вазифаси иттифоқ мактаблари учун стандартлаштирилган тестлар ишлаб чиқиш бўлган. 1926 йил баҳорида АҚШ таълим тизими тести намуналари асосида комиссия томонидан ёзиш ва ёзишга оид фанлар, табиий, ижтимоий, ҳисоблашга оид фанлар, география хариталарини билиш ва бошқа таълимдаги муаммоларни ўрганиш бўйича стандарт тестлар ишлаб чиқилган ва амалиётда қўллаш учун тарқатилган. 1936 йилда собиқ иттифоқ миқёсида тестология бўйича илмий тадқиқотлар тўхтатилади.

Россияда ўтган асрнинг 70-йиллари бошидан бошлаб, иккинчи давр педагогик тест ва тест тизимларини яратиш бошланган. Шу даврга келиб, синов технологияларини жорий этиш учун замонавий дастурий таъминот амалиётга қўлланила бошланган. У турли даражада таълим сифатини баҳолаш имкониятларини кенгайтирган, бу эса тизимни янада мукамал қилиш имконини яратган.

Россияда 2001 йилдан бошлаб “Ягона давлат имтиҳони” (ЯДИ) тизими жорий этила бошланди. Дастлаб Россиянинг 6 та ҳудудида тажриба тарзида 8 та фандан мактаб, лицей ва коллеж битирувчиларидан тест синовлари ўтказилган. 2006 йилдан Россия бўйича миллиондан ортиқ ўқувчилар ЯДИга қатнашган. Мазкур тадбир ташкилотчиси “Фан ва таълимни назорат қилиш федераль хизмати” бўлиб, субъектлар ижро ҳокимияти органлари билан биргаликда амалга оширилган ва ҳозирда бу тизимда самарали “назорат ўлчов материаллари”дан фойдаланиб келинмоқда.

Ўзбекистон Республикасида тест ўтказиш тизими Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1992 йил 11 мартдаги “Республика олий ўқув юр்தларининг кундузги бўлимларига қабул қилишни такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-361-сон фармонида асосан 1992/1993 ўқув йили қабулидан Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлигига қарашли педагогика институтларининг ҳамда Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигига қарашли университетлар тегишли соҳа (ўқитувчи кадрлар тайёрлаш билан банд бўлган) факультетларининг кундузги бўлимларига абитуриентларни тест синови орқали қабул қилиш тизими тажриба тариқасида жорий этилган. Ушбу фармоннинг ижросини амалиётга жорий этиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1992 йил 9 апрелда “Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасалари кундузги бўлимларига тажриба қабул жараёнини ташкил этиш ва ўтказиш тўғрисида”ги 181-сон қарори қабул қилинган. Унга кўра олий таълим муассасасига қабул тест синовини республика миқёсида белгиланган муддатда бир вақтда ўтказиш белгиланган.

Тест синовларини ўтказиш учун Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида Олий ўқув юр்தлари кундузги бўлимларига абитуриентларни танлаб олиш республика маркази ташкил этилган.

Ўтказилган тажриба синови натижалари ижобий бўлганлиги ҳисобга олинган ҳолда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1993 йил 5 февралда “Ўзбекистон Республикаси олий ўқув юр்தлари учун талабаларни тест усулида танлаш тўғрисида”ги 61-сон қарори қабул қилинган. Қарор билан 1993 йилдан барча давлат олий ўқув юр்தлари, шунингдек, республиканинг руҳсатномаси бўлган олий ўқув юр்தларида барча таълим шакллари бўйича талабаларни тест усули билан танлаш жорий этилган. Шунингдек, қарор билан Олий ўқув юр்தларига абитуриентларни танлаб олиш республика марказининг штат бирлиги 40 нафар этиб белгиланган. Жумладан, 4 нафар раҳбариятга, 18 нафар Тест материаллари бўлимига, Компьютер таҳлили лабораториясига 12 нафар ва Ташкилий бўлимга 4 нафар ходимга штат бирлиги ажратилган.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 14 майда “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида Давлат тест маркази ташкил этиш тўғрисида”ги 258-сон қарори билан Олий ўқув юр்தларининг кундузги бўлимларига абитуриентларни танлаш бўйича Республика маркази Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест марказига айлантирилган ва ходимларининг сони 87 нафарга етказилган.

Қарорга мувофиқ 1994 йилдан бошлаб олий ўқув юртлари билан бир қаторда барча турдаги ўрта махсус ўқув юртларига абитуриентларни тест усулини қўллаган ҳолда танлаш амалиётини жорий этиш белгиланган.

Республикада педагогик ўлчовлар ва тестологияни ривожлантириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Фан ва техника давлат қўмитасига 1994 йилдан бошлаб тест синовининг истиқболли технологияларини ишлаб чиқиш бўйича танлов асосида илмий-тадқиқот ишларини маблағ билан таъминлашни назарда тутиши кераклиги белгиланган.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 11 мартдаги “Давлат тест маркази таркибида Кадрлар тайёрлаш сифатини назорат қилиш, педагог кадрлар ва таълим муассасалари аттестацияси бошқармасини ташкил этиш тўғрисида” 109-сон қарори билан Давлат тест маркази Халқ таълими вазирлиги билан биргаликда икки ой муддатда, умумий ўрта таълим мактаб ўқувчиларининг якуний аттестациясини тест синовлари асосида амалга ошириш тартибини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги билан биргаликда 1998-1999 ўқув йили давомида академик лицейлар, касб-ҳунар коллежлари ва олий таълим муассасалари талабалари билим даражасини баҳолашнинг такомиллаштирилган рейтинг тизими ҳамда улар тайёргарлигининг босқичли ва якуний назоратига тест усулини қўллашга воситаларни ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш белгиланган.

Қайд этилган қонуности ҳужжатлари асосида олий ва ўрта махсус таълим муассасаларига абитуриентларнинг билими тест синови орқали аниқланиб, талабалikka қабул қилинган.

Тест синовлари олий таълим муассасалари кундузги бўлимлари қабул учун ҳар йили 1 август куни, сиртқи бўлими қабули учун 11 август куни республиканинг барча ҳудудларида бир вақтда бошланган. Бунда бино, қават раҳбари ва аудитория раҳбарлари сифатида олий таълим, халқ таълими ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими тизими таълим муассасаларидан профессор-ўқитувчилар шартнома асосида жалб этилган.

Қабул тест синовларини ўтказиш учун бир қанча мутахассислар Туркия Республикаси Олий таълим вазирлиги тасарруфида бўлган Баҳолаш, танлаш ва жойлаштириш маркази (OSYM – “Ölçme, Seçme ve Yerleştirme Merkezi”) тажрибасини ўрганилган ва Туркия тажрибаси асосида тест синовлари ташкил этилган.

Қабул тест синови учун тест топшириқларини шакллантиришга олий таълим муассасалари, ўрта махсус, касб-ҳунар таълими ва халқ таълими тизимида фаолият олиб бораётган фан мутахассислари жалб этилган. Тест топшириқлари муаллиф томонидан тузилгандан кейин уни бир неча мутахассислар экспертизадан ўтказишган. Тестнинг валидлиги (топшириқдан тест сифатида фойдаланиш эҳтимоллиги; топшириқнинг мақсадга мувофиқлиги) экспертлар томонидан баҳоланиб келинган.

Тест синови натижалари жавоблар варағидан махсус оптик сканер ёрдамида ўқилган ва 10-15 кун давомида эълон қилиб келинган.

Тест топшириқларининг махфийлигини таъминлаш мақсадида тест синови бошланишидан 1-2 ой олдин Давлат тест марказида махсус режим жорий этилади.

Тест топшириқларининг муқобил жавоблари сони дастлабки йилларда 5 та, сўнгра 4 та этиб белгиланган. Параллел тест вариантлари сони эса дастлаб 1992-93 йилларда 2 та, 1995 йилдан 3 та, 1996 йилдан 30-60 та бўлган бўлса, 2010 йилдан ҳар бир абитуриентга индивудал вариантларда тест топшириқлари китоби берилган бошланган. Тест вариантлари сонининг 2-3 та бўлиши уларнинг сифат даражаси ошишига ёрдам берган бўлса, абитуриентларнинг бир-биридан кўчиришлари учун шароит яратилишига сабаб бўлган. Ушбу ҳолатнинг олдини олиш мақсадида тест вариантларининг сони 30-60 тага етказилган. Бу ўз навбатида тест вариантлари сифатининг пасайишига маълум даражада таъсир қилган, аммо битта гуруҳда абитуриентларнинг бир-биридан кўчиришлари олди олинган. Кейинчалик ҳар бир абитуриентга алоҳида (индивидуал) вариант қилиниши, тест тузувчиларни тест топшириқларини кўп миқдорда ишлаб чиқишга мажбур қилмоқда. Оқибатда география, тарих каби фанлардан параллел тест вариантларини яратишда айрим қийинчиликлар вужудга келмоқда.

Тест синовларининг холислиги ва шаффофлигини таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 16 ноябрдаги “Республика олий таълим муассасалари бакалавриятига кириш тест синовларини ўтказиш тартибини такомиллаштириш тўғрисида” ПҚ-3389-сон қарори билан бир кунлик тест ўтказиш тизимидан воз кечилиб, 2018/2019 ўқув йили қабулидан бошлаб олий таълим муассасасига абитуриентларни талабалikka қабул қилиш бўйича кириш тест синовларини 1 августдан 15 августгача бўлган даврда ўтказиш, кириш тест синовлари натижаларини тест ўтказилган куннинг эртасига Давлат тест марказининг расмий веб-сайтида эълон қилиш тизими жорий этилди. Шунингдек, 2018/2019 ўқув йилидан бошлаб, олий таълим муассасасига ўқишга қабул қилиш бўйича кириш тест синовларининг катта сиғимдаги биноларда ўтказилиши, тест жараёнининг максимал даражада ошкора ва шаффофлигини таъминлаш учун видеокузатувлар орқали жамоатчилик, шу жумладан, абитуриентлар ота-оналарининг онлайн режимида кузатиб боришларига имконият яратилиши таъминланган. Шу билан бирга, ҳозирги кунда тест топшириқларини апробациядан ўтказиш ва натижаларни статистик таҳлил қилиш тизими ҳам амалиётга жорий этилган [3,4].

Юқорида келтирилган ҳолатлар тест синови жараёнига инсон омили таъсирини камайтириш, тестларнинг сифатини ошириш мақсадида амалга оширилган бўлиб, бугунги кунда тест синови жараёнига инсон омилининг аралашуви минимум даражага камайтирилган.

АДБАБИЁТЛАР

1. Дандамаев М.А. Вавилонскиеписцы. М.: Наука, 1983. 245 с.
2. Шюре Э. Великиепосвященные. Пер. сфр. Калуга: Лотос, 1914. 419 с.
3. Zuparxodjayeva S.Z., Ziyoviddinov N.K., Yusupov J.R. Aprobatsion test natijalari tahlili. Davlat test markazining Axborotnoma jurnali. 2019 yil, 2, 20-48 betlar.

4. Закирова М.Ш., Тестлар сифатини илмий асослаш жараёнидан ўтказиш. Давлат тест маркази Ахборотнома журнали. 2019 йил, 2, 4-19 бетлар.

Тест синовларини ташкил этишда гуруҳ назоратчиларининг роли

Ғ.А.Бобоев, Давлат тест марказининг Тест синовларини ташкил этиш ва назорат қилиш бошқармаси бош мутахассиси

Республикамиз олий таълим муассасаларига иқтидорли ёшларни кенг жалб этиш, уларга замонавий талаблар асосида таълим бериш бугунги куннинг асосий масалаларидан биридир. Бу борада олий таълим муассасаларига кириш тест синовларини адолатли, холис ва шаффоф ўтказиш орқали пухта билимли ёшларнинг ўқишга қабул қилинишини таъминлаш муҳим аҳамият касб этади.

Мамлакатимизда кадрлар тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш, иқтисодиёт ва ижтимоий соҳа тармоқларини юқори малакали мутахассислар билан таъминлаш учун олий таълим муассасаларининг бакалавриятига қабул қилиш бўйича ўтказиладиган кириш тест синовларини такомиллаштириш, хусусан, унинг юқорида таъкидланган ҳолатларда ўтказилишини таъминлаш мақсадида ҳукуматнинг бир қатор қарорлари қабул қилинди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 16 октябрдаги ПҚ-3389-сон “Республика олий таълим муассасаларининг бакалавриятига кириш тест синовларини ўтказиш тартибини такомиллаштириш тўғрисида”, Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 20 июндаги 393-сон “Олий таълим муассасаларига ўқишга қабул қилиш, талабалар ўқишини кўчириш, қайта тиклаш ва ўқишдан четлаштириш тартиби тўғрисидаги низомларни тасдиқлаш ҳақида”, 2018 йил 20 февралдаги 130-сон “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест маркази фаолиятини янада такомиллаштириш тўғрисида”, 2018 йил 3 апрелдаги 261-сон “Олий таълим муассасаларига ўқишга қабул қилиш тартибини янада такомиллаштириш тўғрисида” қарорлар шулар жумласидандир.

2018/2019 ўқув йилидан бошлаб олий таълим муассасасига ўқишга қабул қилиш бўйича кириш тест синовларини “Ўзэкспомарказ” Миллий кўرғазмалар мажмуаси павильонлари, шунингдек, вилоят марказларидаги Олимпия заҳиралари коллежлари ёки катта сифимдаги (кўп ўринли) бошқа биноларда ўтказиш йўлга қўйилди, тест жараёнининг ошқора ва шаффофлигини юқори даражада таъминлаш, видеокузатувлар орқали жамоатчилик, шу жумладан, абитуриентлар ота-оналарининг кириш тест синовларини “онлайн” режимида кузатиб боришларига имконият яратилди.

Бундан ташқари, тест синовларига назоратчиларни тайёрлаш ва танлаш механизмлари тубдан ўзгартирилди. 2019/2020 ўқув йилида тест синовлари жараёнига махсус семинар ва танловдан муваффақиятли ўтган 5348 нафар тажрибали гуруҳ назоратчилари жалб этилди.

Гуруҳ назоратчилари таркиби олий ва умумий ўрта таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог ходимларидан шакллантирилди ва улар Давлат тест маркази ўртасидаги шартнома асосида фаолият юритиши белгиланди.

Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 3 апрелдаги 261-сон “Олий таълим муассасаларига ўқишга қабул қилиш тартибини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги қарорида тест синовлари жараёнида гуруҳ назоратчиларининг роли, ҳуқуқ ва мажбуриятлари белгилаб берилди.

Мазкур ҳужжатда тест синови ўтказилаётган гуруҳда низом талабларига қатъий риоя қилиш ва жараёни адолатли ўтказилишини таъминлаш гуруҳ назоратчисининг вазифаси эканлиги, гуруҳ назоратчиси ўзига юкланган вазифаларни самарали амалга ошириш учун бино раҳбаридан амалий ёрдам олиши, мазкур низом талабларига амал қилмаган абитуриентни тест синовлари жараёнидан четлаштириш ҳуқуқига эга эканлиги қайд этилган.

Гуруҳ назоратчисининг ҳуқуқлари шу билан чекланган. Гуруҳ назоратчисининг тест синовлари жараёнидаги ролини ошириш учун унинг ҳуқуқлари доирасини кенгайтириш лозим.

2019/2020 ўқув йилида республика олий таълим муассасалари бакалавриатига ўқишга кириш учун 5161 нафар, шу жумладан, 278 нафар 1-гуруҳ, 4830 нафар 2-гуруҳ ногиронлиги мавжуд шахслар ҳужжатларини рўйхатдан ўтказган бўлиб, мазкур абитуриентлар белгиланган муддатнинг охиригача кунида тест синови топширдилар.

Мазкур абитуриентларнинг кўпчилиги кўришдаги нуқсонни ёки асаб касаллиги боис, жавоблар варақасидаги доирачаларни бўйлаб олмайди, айримлари таянч ҳаракати аъзолари ишлаганлиги боис, фақат ётган ҳолда тест топшириқларини белгилайди.

Амалдаги низомда мазкур тоифадаги абитуриентларга қандай ёрдам кўрсатилиши белгиланмагани боис, бундай тоифадаги абитуриентларга ёрдам кўрсатишда гуруҳ назоратчиларининг роли, ҳуқуқлари чекланган.

Гуруҳ назоратчисида ўзига юкланган вазифаларни самарали амалга ошириш учун бино раҳбаридан амалий ёрдам олиш ҳуқуқи мавжуд, лекин 1200, 1800 абитуриентга мўлжалланган биноларда айрим муаммоларни оператив равишда ҳал этиш имкони кам.

Яна бир мисол, гуруҳ назоратчиси бошқа гуруҳда тест синови қоидаларини бузган абитуриентни кўрди, лекин унга нисбатан чора кўра олмайди, чунки бунга унинг ваколати йўқ.

Шу боис, энг тажрибали гуруҳ назоратчилари таркибидан бино раҳбари ёрдамчилари - сектор раҳбарларини тайинлаш, уларга ўзига бириктирилган гуруҳ назоратчилари билан коллегия равишда сектор муаммоларини ҳал этиш ваколатини бериш, бу қоидаларни амалдаги низомда белгилаш мақсадга мувофиқ.

Тест синовларини ўтказишда гуруҳ назоратчилари абитуриентларга микрокалькулятор, луғат, жадвал, китоб, уяли телефон, компьютер, телекоммуникация воситалари, шпаргалкалар ва шу қабиларни берса ёки ишлатишга имконият яратса, фойдаланилаётган ҳолатларда тест синовларидан четлаштирмас ва ушбу ҳолат учун жавоблар варақасининг 4-бўлимини расмийлаштирмас, мазкур ҳолат уларни белгиланган тартибда жавобгарликка тортиш учун асос бўлади.

Ўтган икки йилги тест синовлари жараёнида гуруҳ назоратчилари томонидан назоратнинг яхши бўлмаганлиги телефонга туширилган тест саволлари суратларининг интернетга чиқиб кетишига сабаб бўлди.

Жорий йилдаги тест синовларида турли қоидабузарликларга йўл қўйган 35 нафарга яқин гуруҳ назоратчилари тест синовларидан четлаштирилди, лекин уларга белгиланадиган жазо чоралари уларнинг асосий иш жойларига хабар бериш билан чекланмоқда. Шу боис, ушбу тоифадаги шахсларга жазо чораларини кучайтириш бўйича амалдаги қонунчилик нормаларига ўзгартириш киритиш лозим.

Бугунги кундаги асосий камчилик, гуруҳ назоратчилари (улар томонидан тест синовлари жараёнида амалга оширган ишлар) натижаларини йилма-йил таҳлил қилиб бориш механизми шаклланмагани ҳисобланади.

Энг яхши натижаларга эришган назоратчиларни рағбатлантириб бориш, уларнинг асосий иш жойларига ташаккурномалар юборилиши уларнинг гуруҳ назоратчиси сифатидаги ролини оширишга хизмат қилади.

Шуни айтиш жоизки, мустақил давлатимизнинг тараққиёти ва келажагининг асоси бўлган баркамол авлодни ижодкор, ижтимоий фаол, маънавий бой ва юксак малакали кадр қилиб тарбиялаш таълим тизимида асосий вазифа ҳисобланади.

Гуруҳ назоратчиларини тест синовлари жараёнида мустақил ва мантиқий фикрлаш қобилиятларини ривожлантириш, ташаббускорлик ва ташкилотчилик кўникмаларини ривожлантириш, ўз фикр-мулоҳазаларини жамоатчилик олдида эркин ифодалаш, миллий ва умуминсоний кадриятларга муҳаббатини кучайтириш зарурлигини билдириш даркор.

Ҳозирги кунда олдимизда ниҳоятда муҳим, келажагимизни ҳал қиладиган чуқур билимга эга, юксак тарбия кўрган, баркамол авлодни яъни, комил инсонни вояга етказиш вазифаси турибди. Юртбошимиз таъбири билан айтилганда: “Буюк давлат, буюк келажагимизга эришишимиз учун оқил, маърифатли, айти пайтда, ўзининг ўтмиши, улуғ кадриятлари, миллати билан фахрланадиган инсонларни тарбиялашимиз керак”.

Хулоса қилиб айтганда, тест синовларининг ўтказилишида гуруҳ назоратчиларининг роли катта. Уларни ташкилотчи ва жонкуяр, фаҳм-фаросатли, зехдли ва руҳшунос, ҳақгўй, ростгўй, ўз манфаатидан кўра умумманфаатни устун кўювчи, Давлат тест маркази томонидан ўтилган ўқув-семинарларида олган билимларини абитуриентларга тест синовларини ўтказиш жараёнида тушунтира оладиган, қўйилган мақсадга эришишда қатъийлик кўрсата оладиган мутахассис сифатида тайёрланса, амалдаги қонун ҳужжатларида гуруҳ назоратчилари ҳуқуқлари кенгайтирилса, тест синовларини ўтказишда янада катта муваффақиятларга эришиш учун катта замин бўларди.

HISTORY OF DEVELOPMENT OF LINGUODIDACTIC TESTING

State Testing Center,
head specialist Z.Z.Mirvaliev
Tashkent Institute of Design, Construction
and Maintenance of Automotive roads,
teacher M.Z.Mirvalieva

In order to characterize linguodidactic testing, to describe modern trends in linguodidactic testing, it is advisable to begin this work with a review of the history of the development of language testing, originating from and closely related to psychological and pedagogical tests. Familiarity with the history of the development of test methods of control in training allows us to understand the current state of linguodidactic testing.

For the first time as a method, in other words a set of operations and techniques based on certain theoretical principles, the test method was proposed by psychologists. Therefore, the main theoretical and practical provisions of testology were developed for psychological tests, and then extrapolated to genetically later pedagogical tests. The development of test methods at the scientific level occurred at the end of the 19th - beginning of the 20th centuries, and their appearance reflects the general state of scientific research and the achievements of that time both in science as a whole and in its individual areas. So, the rapid development of natural science, the emergence and spread of theories, explaining the process of human development as changing and becoming more complicated in time, they facilitated the penetration of accurate measuring methods into the system of human sciences, first of all, into psychology. The impulse for the appearance of the first psychological tests was the problem of studying individual differences. To the greatest extent this contributed to the study of the English anthropologist and psychologist Francis Galton (Francis Galton) and the American psychologist James Cattell (James McKeen Cattell). Their ideas on the application of measurements and statistical analysis in determining individual differences, as well as the two main concepts put forward by them to assess the quality of tests - reliability and validity - formed the basis of test theory and testing practice - testology.

If psychological tests determined the level of mental development, the main task of pedagogical tests was to measure the success of students in certain subjects over a certain period of study, as well as the success of applying certain teaching methods and organizing the learning process. Meanwhile, in foreign countries, the errors generated by the practice of mass testing at that time played a significant role in the scientific study of the advantages and disadvantages of measurements in psychology and pedagogy, in the development of the theory and practice of test design. And the foundations laid down in pedagogical testing in the first three decades of the 20th century turned out to be so highly productive that the principles of compiling and applying tests since then have remained largely unchanged.

At the beginning of the 20th century, the linguodidactic direction of pedagogical testing was outlined - language testing. In linguodidactic testing, there are also quite clear periods and directions that are associated with the development of the theory and

practice of basic sciences, primarily pedagogy, psychology, linguistics, and methods of teaching foreign languages. Bernard Spolsky identified 3 periods in the history of the development of language control in the 20th century: primary, or pre-scientific, psychometrically-structuralist, integrative-sociolinguistic /psycholinguistic-sociolinguistic. The initial period, which lasted until the mid-1950s, was called pre-scientific, since at that time insufficient attention was paid to the quality of measuring instruments, especially their validity and reliability. The measurement was mainly carried out in the form of a traditional exam using open-ended assignments (for example, writing an essay, translating), and the assessment was based on the subjective impression of the examiners.

The first study on the problem of testing in the region dates back to 1925. From that time, the theoretical foundations of pedagogical testing in the region begin to be laid and tests are being created that are widely used in the practice of a foreign school. An important milestone in the development of linguodidactic testing was the book V. Henmon, published in 1929, "Achievement Tests in the Modern Foreign Languages", dedicated to studies conducted from 1924 to 1927 by the American and Canadian committees for the study of modern languages, and which went down in history as "The first theoretical and practical guide to testing in teaching methods". In his book, the author summarizes the experience of compiling and using tests: justifies the need to create objective standardized tests; highlights the goals of linguodidactic testing; summarizes the quality criteria that tests in a foreign language must satisfy; conducts a sequence of steps in the process of preparing tests; analyzes the existing methods of testing from the point of view of their acceptability in language testing. In the same period, the first works in the field of compiling and applying tests of linguistic abilities appeared.

The most complete coverage of the theory and practice of testing was given in the works of Robert Lado, among which the monograph "Language Testing" is considered the fundamental work of that time. The author begins his work with an analysis of modern linguistic theories on the essence of language, considers the structure of the language, questions of teaching methods, and theory of testing. Based on the idea of close interaction between training and testing. During this period, the problems of matching tests with real life situations with their possible sociolinguistic variations are investigated, issues of ensuring not only objectivity and reliability, but also the validity and authenticity of control are addressed. If the previous period can be characterized as analytical, then the modern one is characterized by a synthetic, and pragmatic-communicative approach to linguodidactic testing.

